

**RAQAMLI TA'LIM VOSITALARINING TALABALAR NUTQIY
FAOLIYATIGA TA'SIRI**

Ne'matjonova Yulduz O'tkirovna

*Pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent
+998939949462*

Jo'raqulova Shoxzoda Toir qizi

Samarqand davlat pedagogika institut, magistrant

shakhzodajurakulova@gmail.com

+998946746741

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli ta'lim vositalarining talabalar nutqiy faoliyatiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilingan. Multimediya platformalari, interaktiv ilovalar, audio-video materiallar va onlayn ta'lim resurslarining muloqot ko'nikmalari, so'z boyligi, og'zaki va yozma nutqning shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, raqamli vositalar talabalar nutqiy kompetensiyasini kuchaytirib, o'quv jarayonini qiziqarli, samarali va interaktiv qiladi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, nutqiy faoliyat, multimedia, onlayn platforma, kommunikativ ko'nikma, til o'rgatish.

Abstract: This article analyzes the impact of digital learning tools on students' speech activity. The role of multimedia platforms, interactive applications, audio-video materials, and online learning resources in the development of communication skills, vocabulary, and oral and written speech is examined. The study shows that digital tools enhance students' speech competence and make the learning process engaging, effective, and interactive.

Keywords: digital learning, speech activity, multimedia, online platform, communication skills, language teaching.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние цифровых образовательных инструментов на речевую активность студентов. Рассматривается роль мультимедийных платформ, интерактивных приложений, аудио- и видеоматериалов, а также онлайн-ресурсов в формировании коммуникативных навыков, словарного запаса, устной и письменной речи. Исследование показывает, что цифровые инструменты повышают речевую компетенцию студентов и делают процесс обучения увлекательным, эффективным и интерактивным.

Ключевые слова: цифровое обучение, речевая активность, мультимедиа, онлайн-платформа, коммуникативные навыки, обучение языку.

Hozirgi kunda mamlakatimizda raqamlashtirish harakatlari ko'plab sohalarni qamrab oldi. Shu bilan bir qatorda bu ta'lim sohasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonining barcha bosqichlariga chuqur kirib bordi va o'qitish hamda o'rganishning mazmunini tubdan o'zgartirdi. Talabalar bugungi kunda informatsion muhitning faol ishtirokchisi bo'lib, o'z nutqiy faoliyatini turli raqamli vositalar orqali shakllantirmoqda. Bu jarayon nutqning tezligi, uslubi, mazmuni va ifoda shakllariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli ta'lim vositalari — bu kompyuter, telefon, planshet, multimedia dasturlari, onlayn platformalar, videodarslar va mobil ilovalardir. Bugungi kunda talabalar shu vositalardan juda ko'p foydalanadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar talabalar nutqiy faolligini oshirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanib kelmoqda.[5] Interaktiv slaydlar, multimediali darslar, elektron resurslar va sun'iy intellekt asosidagi dasturlar o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otib, ularni faol muloqotga jalb etadi. Talabalar dars jarayonida o'z fikrini erkin ifodalashga moyil bo'ladi, bu esa ular nutqining mazmundorligini oshiradi.

Raqamli ta'lim vositalarining talabalar nutqiy faoliyatiga quyidagicha ta'sir qiladi:

■ Talaffuz yaxshilanadi.

Video darslar, audio mashqlar, onlayn tinglab tushunish materiallari talabalar so'zlarni to'g'ri aytishni o'rganishga yordam beradi.

■ Gapirish tezligi oshadi.

Onlayn darslar va videokonferensiyalar talabalarni ko'proq gapirishga undaydi. Shuning uchun ular o'z fikrini tezroq va erkinroq ifodalaydi.

■ Muloqot ko'nikmalari rivojlanadi.

Chatlar, forumlar, guruhli videomuloqotlar orqali talabalar boshqalar bilan ko'proq suhbatlashadi. Bu esa nutqning mantiqiyliigi va ravonligini mustahkamlaydi.[10]

Qolaversa, raqamli texnologiyalar yordamida talabalarning nafaqat nutqiy qobiliyat balkim tillar o'rganish qobiliyatini ham rivojlantirish ahamiyatiga ega. Mobil ilovalar (Quizlet, Memrise, Duolingo), elektron lug'atlar, animatsion videolar va infografikalar yangi so'zlarni o'zlashtirish jarayonini tezlashtiradi. So'zlarni matn, tasvir, audio va video orqali ko'rish talabalarning vizual va eshituv xotirasini bir vaqtning o'zida ishga soladi. Natijada lug'at boyligi boyib, talabalar nutqida aktiv leksika ulushi oshadi. Barchamizga ma'lumki, hozirgi paytda talabalarda nutqiy qobiliyat boshqa qobiliyatlarga nisbatan zaifroq rivojlangan. Chunki ko'plab sohalarda faoliyatning asosiy qismini nazariy bilimlar tashkil qiladi. Shu sababli muloqot jarayonida talabalar ko'plab qiyinchiliklarga duch keladi.[4]

Raqamli ta'lim vositalarining talabalar nutqiy faoliyatiga ta'siri haqida bir necha olimlar ham o'z fikrlarini izohlab o'tgan. Mayerning multimedia ta'lim nazariyasida aytilishicha, matn + tasvir + audio orqali o'rganish talabalar nutqida:

- mazmunni chuqur tushunish,
- so'z boyligini kengaytirish,

●mazmunli gapirish ko'nikmasini shakllantirishga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Multimedia muhiti nutq faoliyatini faollashtiruvchi omil sifatida qayd etiladi.[2]

Prenskyning "Digital Natives" nazariyasiga ko'ra, raqamli vositalar bilan ulg'aygan talabalar o'qitish jarayonida multimediadan foydalanganda tezroq o'zlashtiradi va faol muloqotga kirishadi. Unga ko'ra, raqamli texnologiyalar talabalarni ko'proq og'zaki fikr bildirishga, interaktiv topshiriqlar orqali nutqini rivojlantirishga undaydi.[7].

Reindersga fikriga ko'ra, mobil ilovalar, interaktiv platformalar va onlayn muloqot vositalari talabalar nutqiy faoliyati uchun:

- real vaqtli muloqot,
- og'zaki mashq qilish takroriyligi,
- talaffuzni mustahkamlash imkonini yaratadi. Raqamli vositalar ayniqsa second language speaking (ikkinchi tilda gapirish) rivojlanishida muhim ekanini ta'kidlagan.[8]

Hulmening nazariy asoslariga ko'ra, mobil texnologiyalar talabalarni istalgan joyda va istalgan vaqtda nutq mashqini bajarishga undaydi. Bu:

- nutqning ravonlashuvi,
- talaffuz yaxshilanishi,
- kontekstli muloqot kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Vygotskiy nazariyasiga tayangan zamonaviy tadqiqotchilar raqamli vositalarni ixtiyoriy muloqot muhiti deb baholashadi. Raqamli platformalarda (forumlar, chatlar, videodarslar) talabalar nutqida ; o'zaro muloqot, fikr almashish, muammoli vaziyatlarni hal qilish jarayoni rivojlanadi. Bu jarayon "yaqin rivojlanish zonasi"ni kengaytiradi deb hisoblaydi.[9]

Shu bilan bir qatorda interaktiv suhbat platformalari, podkastlar, videomuloqotlar, talaffuzni tekshiruvchi ilovalar o'quvchilarning og'zaki nutqini sezilarli darajada takomillashtiradi. Tovushlar talaffuzidagi xatolarni aniqlash, to'g'rilash bo'yicha ko'rsatmalar berish, dialoglar tuzish kabi funksiyalar talabalar og'zaki muloqotini rivojlantiribgina qolmay, ularda yozma nutq ko'nikmalarini ham oshishiga ta'sir ko'rsatadi. Raqamli matn muharrirlari, onlayn mashqlar, grammatika tekshiruvi va essay platformalari talabalar yozma nutqini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Talabalar matn tuzish, fikrni izchil bayon qilish, imlo va punktuatsiya qoidalariga rioya etish ko'nikmalarini mustaqil ravishda rivojlantira oladi. Shu bilan bir qatorda raqamli ta'limning ustunliklaridan biri — o'rganish jarayonini istalgan paytda davom ettirish imkoniyatidir. Onlayn materiallar yordamida talabalar darsdan tashqari vaqtda ham nutqni rivojlantirishni davom ettiradi. Bu esa o'z-o'zini o'rganish kompetensiyasini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta'lim vositalari talabalar nutqiy faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Multimedia va interaktiv texnologiyalar nutqiy faoliyatning barcha jihatlarini — so'z boyligini, og'zaki va yozma nutqni, kommunikativ ko'nikmalarni sezilarli darajada takomillashtiradi. Raqamli vositalar ta'lim jarayonini

qiziqarli va zamonaviy shaklga keltirgan holda talabalarni faol ishtirok etishga undaydi va ularning muloqot kompetensiyasini yuqori darajada shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Clark, R., Mayer, R. E-Learning and the Science of Instruction. Wiley, 2016.[1](#)
2. Mayer, R. Multimedia Learning. Cambridge University Press, 2021.
3. Warschauer, M. Learning in the Digital Age. Cambridge University Press, 2020.
4. Heo, Y. "Digital Tools in Language Learning." Journal of Educational Technology, 2022.
5. O'zbekiston Respublikasi "Raqamli ta'lim" konsepsiyasi. Toshkent, 2021.
6. R. Mayer. Multimedia Learning Theory . (2005) [6](#)
7. M. Prensky (2001)
8. H. Reinders. Digital Learning & Speaking Skills. (2012)
9. Vygotsky. Sotsial konstruktivizm. (1934)
10. Jo'raqulova Sh. T. (2025). Zamonaviy texnologiyalar asosida talabalarni pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish. International Journal of Scientific Researchers, 14(2)[10](#)